

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA TABIAT TASVIRINING YARATILISHI

Qurbonova Sevinch Sherzod qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi tabiat tasviri, tasvirlash uslublari va yo'nalishlari hamda tasvirlashda foydalaniladigan asosiy detallar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tasvir, detal, element, predmet, talqin, tavsif, o'xshatish, sifatlash, qarshilantirish, maqol.

Ma'lumki, ijodkor inson uchun tasvir juda muhim elementlardan biri hisoblanadi. Xoh u qo'shiqchi, xoh shoir, xoh yozuvchi va xoh rassom bo'lsin tasvir layotgan narsasining tashqi ko'rinishi, uning qay holatda turganligi, atrof-muhitga qay darajada ta'sir etayotganligi hamda insonlar hayotidagi o'rni juda muhim sanaladi. Ijodkor tasvirlash orqali o'sha narsa, holat yoki insonlarning ijobiy hamda salbiy jihatlarini ochib beradi. Birgina so'z vositasida yaxshi narsani yomon, yomon narsani esa yaxshi munosabatda o'quvchiga yoki tinglovchiga singdirish ham ijodkorning tasvirlash mahoratiga bog'liq hisoblanadi. Masalan, hammamizga ma'lum bo'lgan, xalq og'zaki ijodiga mansub: „Oyning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'udir” maqolida tasvirlanayotgan Oy so'zi, ayni vaqtda, ko'chma ma'noda qo'llanilgan hisoblanadi. Bunda Oy so'zini tasvirlash orqali, insonlarning turmush tarzi yorqin tarzda ochib beriladi. „Oyning o'n beshi yorug'” deganda hayotimizdagi quvonchli damlarni, to'la-to'kis hayotni his qilsak, „O'n beshi qorong'udir” jumlasini orqali esa hayotning doim ham bir xil holatda bormasligini, yaxshi damlar bilan bir qatorda, albatta, qaro kunlarning ham borligini his qilamiz. Asarlarda tasvirlashning yana bir turi bu iboralar orqali tasvirlash bo'lib, bunda o'sha tasvirlanayotgan shakl yoki holat yorqin, boshqa jihatlariga muvofiq

bo'lmagan tarzda ifodalanadi. Jumladan, "Xirmonlarimiz oq oltinga to'lmoqda". Tasvirlashning turlari bir qancha: she'r orqali, suratlar orqali hamda hikoya qilish orqali tasvirlashdir.

Badiiy asarlarda uchraydigan keng tarqalgan tasvirlardan biri bu tabiat tasviridir. Tabiat tasviri peyzaj atamasi bilan yuritiladi. "Peyzaj" deganda, odatda, tabiat (daryo, ko'l, o'rmon, tog', osmon, dengiz va boshqa) manzarasi tasviri nazarda tutiladi. Bog', ko'cha, hovli singari inson qo'li bilan bunyod qilingan joylar tasviri ham peyzajdir.[1:69-70]. Tabiat tasvirini tavsiflashda ijodkor inson shunday narsalardan foydalanishi kerakki, uni o'qigan yoki eshitgan insonning qalbi iliqlikka, ezgulikka to'lsin. Shukur Xolmirzayev ham o'z hikoyalarida tabiat tasvirini mohirona tarzda tavsiflashi sababli, ularni bir o'qiganimizda ko'z oldimizda gavdalanadi. Jumladan, „Boychechak ochildi” hikoyasida:

„...Domla shu topda qalbida g'ayritabiiy bir kuch sezib o'zini xuddi navqirondek his etar, qarilik- kam quvvatlikni ham unutgan, go'yo shu ketishda tog'lardan ham oshib ketgudek vajohatda edi.

Domla tog` unguriga yetganda qiyshiq yo'l bilan pastga yurdi. Yo'lning so'l tomoni uncha chuqur bo'lmagan jarlik, jar tubida muzlarni yalab jildirab suv oqypdi - rangi sarg'ish, qayerdadir sariq tuproqqa ishqalanib kelyapdi. Yo'lning o'ng tomoni nishab yonbag'ir, unda - bunda maysalar ko'kargan, lekin hali ulardagi nam ko'tarilmagan, sabzalar chiroyli ochilmagan...

Tunlari bu yerdan izg'irin - shamollar ko'p esgan, ular qor betini yalab, cho'tir qilib ketgan, ba'zi joylardagi qor surilib, qiyshayib qolgan, ba'zi joylarda u shu qadar yupqaki, xuddi doka pardaga o'xshaydi, tagidan muz qotgan xas - huslar ko'rinib turadi...

Domla quyoshga qaradi-yu , xuddi uni birinchi marta korayotgandek bo'ldi, bu oftob o'ziga azaldan tanish, juda qadrdon oftob ekaniga iqror bo'ldi: - Yo'q, bu toza oftob! Agar fazoda biron yomon narsa bor bo'lsa, u yo'qolishi kerak. Axir insonlar buning uchun kurashishi kerak. Mana shu oppoq qorlar bor bo'lsin, archalar, suv, xarsang...Ko'katlar!".

Ko'rib turibsizki, tog` yon bag'irlaridagi endigina kirib kelayotgan ko'klam

to'raligicha, oson va tushunarli tarzda talqin qilingan. Endigina sabza urayotgan maysalar, jildirab oqayotgan suvlar kishi qalbida shirin hislarni uyg'otadi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Yozuvchining yana bir hikoyasi bo'lmish „O'zbeklar“ hikoyasiga nazar tashlasak:

„Ayvon ustuniga suyanib, tomosha qila boshladim: paxtazor chetida tutlar. O'sha tutlar...U yer - bu yerda chug'urchuqlar galasi uchadi. Tutzorning narigi tomonida bo'zrang bir uzun imorat ko'rinadi. Uning ildida bokni qaynatishyapdi shekilli, bak karnayidan qizil alanga chiqib qolardi.Keyin, shundoq pastlikdagi - paxtazorni bizdan ajratib turgan ariq bo'yidagi yolg'iz kulbaga ko'zim tushdi. Uning ham tomiga pichan bosilgan. Pichan ustida chumchuqlar gu'jg'on: chiriq - chiriq...

Ariq bo'yida esa bir qoraqalpoq kursdoshim, ha, o'sha - Saparvoy maykachan bo'lib chopib yuribdi.

... Buning ustiga, havo yumshoq. G'o'zalar yuvilgan, namxush. Barglari, poyalari sariq. Ariqchada tiniq zilol suv oqyapdi... O! O'sha paytlar Bo'kadayam suvlar toza bo'lgich edi...

Xullas, men Surxonning bir burchagiga kelib qolgan edim” .

Anglashimiz mumkinki, bu tasvirlar orqali ham tabiatning ko'z ilg'amas, ajib tarovati paxta dalasi misolida namoyon etilmoqda. Shuni bilishimiz kerakki, tabiat tasvirini tavsiflayotganimizda, ko'proq unda qatnashayotgan obyektlar, predmetlar, kishini o'ziga rom etuvchi detallar muhim ahamiyat kasb etadi. Birgina predmet yoki detal ham ramziylikka asos bo'lib, xizmat qilishi mumkin. Jumladan, gul - go'zallik, ma'shuqa; bulbul - oshiq kabi. Bunda u yoki bu narsa tasvir jarayonida yozuvchi maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma'noga ega bo'ladi.

Tabiat tasvirini tavsiflashda ko'proq o'xshatish, sifatlash, qarshilantirish kabi tasvir vositalaridan keng foydalaniladi. Masalan, „Baxt kapalakka *o'xshaydi*, uni qo'lga olish ba'zan qiyin” .

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, adib hikoyalarida mohirlik bilan tabiat tasvirini yaratadi. U bunday tavsiflashda ko'proq reallik, aniqlik, holatni boricha tasvirlashga katta e'tibor beradi. Shukur Xolmirzayev ham o'z hikoyalarida ana shu elementlardan mohirona foydalangan. Tabiatni kuzatishi, atrof-muhitga

beparvolik bilan qaramasligi, uning hikoyalarida o'z isbotini topadi. Ularni o'qib bebaho tabiatimizni qadriga yetish, uni asrab - avaylash kabi tuyg'ularni his qilamiz.

ADABIYOTLAR

1. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, – 2017. – 69-70 b.
2. Xolmirzayev Sh. Tanangan asarlar. – Toshkent: Sharq, – 2020. – 749 b.
3. Sultonqulova, F. (2020). Metaphorical images in Osman Azim poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (84), 537-539. *Soi:* <http://s-o-i.org/1.1/TAS>.
4. Sultonqulova, F. (2021). Metaphors of colors in Usman Azim poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 02 (94), 350-353. *Soi:* <http://s-o-i.org/1.1/TAS>